

KONFERENSIYALAR .COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**VI RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

AVGUST, 2025

ELEKTRON NASHR:
<https://konferensiylar.com>



KONFERENSIYALAR .COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

**VI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, avgust

TOSHKENT-2025

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
VI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.1-jild, 6-son (avgust, 2025-yil). – 177 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 7-avgust

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi VI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rinni organ bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan. Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huqular himoyalangan.
© Scienceproblems team, 2025-yil
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

TEXNIKA FANLARI

Bozorboyev Abbosjon, Ravshanov Shavkat

KUNJUT O'SIMLIGINING XUSUSIYATLARI VA UNING HOSILINI YIG'ISHTIRIB OLISHDAGI

MUAMMOLARI..... 6-9

Iskandarov Orifxon

TIRIKOTAJ MATOLARIDA SIFAT NAZORATI 10-12

Odinayev Mirjalol

"AI-TRANSLATE" TEXNIK HUJJATLARNI SUN'YI INTELLEKT ORQALI AVTOMATIK TARJIMA

QILISH VA HUQUQIY MASLAHATLAR AXBOROT TIZIMI – TEXNIK JIHATDAN TARTIBGA

SOLISHDA INNOVATSION YECHIM 13-18

QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI

Karimov Nurbek

TURLI USULDA YERGA ISHLOV BERISHNI SOYA PARVARISHLANGAN MAYDON

TUPROG'INING SUV O'TKAZUVCHANLIGIGA TA'SIRI 19-22

TARIX FANLARI

Bobojonova Zuxra

TEMURIY MALIKALARLING HUKMDORLAR HAYOTIDAGI O'RNI 23-25

Xalilov Baxodir

ZAMONAVIY KUTUBXONALARLING MAKTABDAN TASHQARI TA'LIMDAGI O'RNI: NAVOIY

VILOYATI MISOLIDA 26-31

Xoliqova Ra'noxon

*"MARKAZIY OSIYODA SUN'YI INTELLEKT TUFAYLI AYOLLAR IMKONIYATLARI: STEM TA'LIMI,
GENDER TENGLIGI VA IQTISODIY FAOLLIK SSENARIYLARI" 32-34*

Xasanova Nargiza

YANGI DAVR: ILM-FANI INNOVASIYALARIDA AYOL-QIZLAR ISHTIROKINING DOLZARB

AHAMİYATI 35-38

IQTISODIYOT FANLARI

Salomov Temurbek

THE ROLE OF PILGRIMAGE TOURISM IN ENHANCING THE SERVICE SECTOR:

A CASE STUDY OF UZBEKISTAN 39-43

Raxmanov Ulugbek

TIJORAT BANKLARIDA BUXGALTERIYA HISOBINING HISOBVARAQLAR REJASIGA MUVOFIQ

TAHLILIY AVTOMATLASHTIRILGAN NAZORAT MEXANIZMINI YARATISH 44-45

Toshtemirov To'lqin

KICHIK TADBIRKORLIK SUB'EKTALARINING SUN'YI BO'LINISH MUAMMOLARI 46-49

Mansurova Sayyora

INNOVATSION PROPTECH-PLATFORMALAR VA

ULARNING KO'ChMAS MULK BOZORIGA TA'SIRI 50-53

Rajabov Alibek

INNOVATSION IQTISODIYOTNI SHAKKLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARIH 54-57

Ochilov Mels, Sayfiyeva Parizoda

EFFECTS OF INDUSTRIAL POLICY ON THE INVESTMENT ENVIRONMENT: LESSONS FROM

GLOBAL EXPERIENCES 58-60

FALSAFA FANLARI

Abdullayev Sodiqjon

MILLIY O'ZLIKNI TIKLASH JARAYONIDA EKOLOGIK TAFAKKUR VA SALOMATLIK QADRIYATLARI..... 61-66

Gafurova Munojat

O'ZBEKİSTONDA GENDER TENGLİGINI TA'MINLASHDAGI JAMIYAT VA DAVLAT O'RTASIDAGI DIALEKTİK MUNOSABATLARI..... 67-70

Davronov Bahodir

SUN'İY INTELLEKT YORDAMIDA AXBOROT MUHİTİNİNG GUMANİTAR QADRIYATLARGA NISBATAN ASİMMETRİK MUNOSABATI..... 71-76

Latipov Sardor

KORRUPSIYANING TARIXAN SHAKLLANISHI VA TURLARI 77-81

FILOLOGIYA FANLARI

Xoliyorova To'lg'anoy

O'ZBEK TİLİ MILLIY KORPUSINING TA'LIM VA ILMİY TADQIQOTLARDAGI O'RNI..... 82-83

Ro'ziyev Temur

ADABIY-ESTETIK QARASHDA TAFAKKUR VA TUYG'UNİNG O'RNI 84-92

Gulmuradova Sobira

"XUSHKELDI" DOSTONI MATNI TARKIBIDAGI ETNOGRAFİZMLARNING MILLİY - MADANIY XUSUSİYATLARI..... 93-95

Qosimova Malika

SINXRON TARJIMADA MASHINA TARJIMASINING AFZALLIKLARI XUSUSIDA 96-99

Bahromjonova Shahnoza

*HODI ZARIF VA YANAGITA KUNIO ILMİY MEROSI:
FOLKLORSHUNOSLIKDA QIYOSIY TAHLİL* 100-102

Ayimbetova Damekhan

*ZAMONAVIY INGLIZ SHE'RIYATIDA HAYVONLARNI
TASVIRLASHNING O'ZIGA XOSLIKLARI* 103-107

YURIDIK FANLARI

Komilov Avazbek

*INTIZOMİY JAVOBGARLIK TO'G'RISIDA ISH QO'ZG'ATISH HAqidagi qaror,
UNING SHAKLI VA MAZMUNIGA NISBATAN TALABLAR*..... 108-110

Shamsitdinova Manzura

TEACHING LISTENING COMPREHENSION 111-112

Xadjiyev Azizbek

"IJTIMOIY ADOLAT" TAMOYILINING XALQARO QONUNCHILIK AMALIYOTIDA YORITILISHI..... 113-116

Уктамов Комрон

РЕГУЛИРОВАНИЕ ТРАНСГРАНИЧНЫХ ВОД ПЕРВЫМ ВОДНЫМ КОДЕКСОМ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН..... 117-123

<i>Исмоилов Бекрузбек</i>	
<i>ОСОБЕННОСТИ ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ТЕЛЕКОММУНИКАЦИОННЫХ УСЛУГ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....</i>	<i>124-129</i>
PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Qo'shmurodova Aziza</i>	
<i>BOSHLANG'ICH SINFLARDA VATANGA MUHABBAT TUYG'USINI SHAKLLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA INTEGRATSİYALASHGAN TA'LIM METODLARINI QO'LLASH.....</i>	<i>130-133</i>
<i>Mamatqosimova Nodira</i>	
<i>SSENARIY YARATISHDA BADIY ADABIYOT NAMUNALARIDAN FOYDALANISH USULLARI</i>	<i>134-137</i>
<i>Sattoriy Shohruh</i>	
<i>TA'LIM SIFATI USTIDAN NAZORAT MEXANIZMLARINI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....</i>	<i>138-141</i>
<i>Jabborova Umida</i>	
<i>TEXNOLOGIYA DARSLARIDA O'QUVCHILARNING TEXNIK SAVODXONLIGINI ROBOTOTEXNIKA ELEMENTLARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI.....</i>	<i>142-144</i>
<i>Xujanazarova Nozima</i>	
<i>RAQAMLI PLATFORMALARDA IQTISODIY MATNLARNI TARJIMA QILISHGA YO'NALTIRILGAN INTERAKTIV O'QUV TOPSHIRIQLARI VA KEYS-STADIYALARINI YARATISH.....</i>	<i>145-148</i>
<i>Aripjanova Dinora</i>	
<i>RAQOBATBARDOSH RAHBAR SHAXSINI SHAKLLANTIRISHDA MOTIVATSIYA MEXANIZMLARINING SAMARALI MODELI.....</i>	<i>149-151</i>
<i>Dosanova Gulbanu</i>	
<i>OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARIDA AXBOROT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING DIDAKTIK SHART-SHAROITLARI.....</i>	<i>152-154</i>
<i>Isokov Ravshanbek</i>	
<i>INNOVATIVE APPROACHES TO FOSTERING HISTORICAL MEMORY AND CULTURAL IDENTITY IN STUDENTS.....</i>	<i>155-160</i>
TIBBIYOT FANLARI	
<i>Urunbayeva Dilorom, Xudaybergenova Shaxnoza</i>	
<i>XOSHIMOTO TIREOIDITINING KECHISHIDA RUXNING O'RNI.....</i>	<i>161-163</i>
<i>Nabiyeva Umida</i>	
<i>GIPERTONIYANING KELIB CHIQISHI VA OLDINI OLISHNING ZAMONAVIY TAMOYILLARI.....</i>	<i>164-166</i>
PSIXOLOGIYA FANLARI	
<i>Polvanov Rasulbek</i>	
<i>INTERNET QARAMLIGI VA SHAXSNING IJTIMOIY MOSLASHUVIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR ZAMONAVIY MAUGLI SINDROMI KONTEKSTIDASH</i>	<i>167-172</i>
<i>Усманова Лилия</i>	
<i>ТИПОЛОГИЯ СЕМЬИ В УЗБЕКИСТАНЕ: ТРАДИЦИИ, ТРАНСФОРМАЦИИ И СОВРЕМЕННЫЕ ВЫЗОВЫ.....</i>	<i>173-176</i>

"IJTIMOIY ADOLAT" TAMOYILINING XALQARO QONUNCHILIK AMALIYOTIDA YORITILISHI

Xadjiyev Azizbek Kadambayevich

Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi mustaqil izlanuvchisi

Email: hodjievazibek559@gmail.com

Tel: +998 99 276 49 09

ORCID: <https://orcid.org/0009-0002-9758-5078>

Tashkent, O'zbekiston

Annotation. Ushbu tezisda Ijtimoiy adolat tamoyilining bugungi kunda inson huquqlarini ta'minlashda actual mavzu ekanligi va ijtimoiy adolat tamoyili nafaqat O'zbekiston Respublikasida balki xalqaro davlatlar qonunchiligi uchun ham muhim va ahamiyati o'lchab bo'lmas darajada beqiyos ekanligi keltirilgan bo'lib, boshqa rivojlangan davlatlarda ham inson huquqlarini ta'minlashda ahamiyati katta ekanligi yoritigan. "ijtimoiy adolat" tamoyilining xalqaro huquqiy normalar va amaliyotdagi o'rni, mazmuni va ahamiyati tahlil qilinadi. Muallif ijtimoiy adolat tushunchasining xalqaro huquq doirasida shakllanishi, rivojlanishi va turli xalqaro tashkilotlar, xususan, BMT, Yevropa Ittifoqi, Xalqaro Mehnat Tashkiloti hamda boshqa global va mintaqaviy institutlar faoliyatida qanday namoyon bo'layotganini o'rganadi. Maqolada ijtimoiy adolat prinsipining inson huquqlari, tenglik, bandlik, ta'lif, sog'liqni saqlash va ijtimoiy himoya sohalaridagi ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, ayrim davlatlar qonunchilik tajribasi misolida ushbu tamoyilning milliy darajadagi tatbiqi yoritiladi. Tadqiqot yakunida ijtimoiy adolatni mustahkamlashga qaratilgan huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish bo'yicha xulosalar va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy adolat, xalqaro qoqnunchilik, qonun ustuvorligi, inson huquqlari, demokratiya, erkinlik, huquq, konstitutsiya.

COVERAGE OF THE PRINCIPLE OF "SOCIAL JUSTICE" IN INTERNATIONAL LEGISLATIVE PRACTICE

Khadjiev Azizbek Kadambaevich

Independent applicant of the National Center of the Republic of Uzbekistan for Human Rights
Tashkent, Uzbekistan

Annotation. This thesis states that the principle of social justice is a topical issue in ensuring human rights today, and that the principle of social justice is of immeasurable importance and significance not only in the Republic of Uzbekistan but also for the legislation of international states, and that it is of great importance in ensuring human rights in other developed countries. The role, content and significance of the principle of "social justice" in international legal norms and practice are analyzed. The author studies the formation, development of the concept of social justice within the framework of international law and how it is manifested in the activities of various international organizations, in particular the UN, the European Union, the International Labor Organization and other global and regional institutions. The article reveals the importance of the principle of social justice in the areas of human rights, equality, employment, education, health care and social protection. It also highlights the implementation of this principle at the national level using the example of the legislative experience of some countries. At the end of the study, conclusions and recommendations are given on improving legal mechanisms aimed at strengthening social justice.

Key words: Social justice, international law, rule of law, human rights, democracy, freedom, law, constitution.

«Ijtimoiy davlat zarur, – deb ta'kidlashadi rossiyalik davlatshunoslar T. Ya. Xabrieva va V. Ye. Chirkin, – bu zamon taqozosi, biroq u har qanday shaxsga, uning jamiyat taraqqiyotiga qo'shgan shaxsiy hissasiga qaramasdan, farovonlik kafolatini berishi shart emas. U insonning faqat asosiy ehtiyojlarini qondirishga majbur (ya'ni yashash minimumini ta'minlash,

infratuzilmani – ta'lif, sog'liqni saqlash, aloqa tizimini yaratish), ijtimoiy sheriklik sharoitlarini yuzaga keltirish va hokazo, ammo insonning o'zi ham o'zi va oilasi haqida g'amxo'rlik qilishga mas'uldir. Bu tushunchaning ba'zi jihatlari yangi konstitutsiyalar loyihibariga ilova qilingan tushuntirish yozuvlarida aks etgan, ammo bu darajada muhim bo'lgan tamoyil shunday ahamiyatga egaki, u, ehtimol, Asosiy qonunlar matnida ham alohida aks ettirilishi kerak. Buni ifoda etadigan qisqa va ayni paytda mazmunli formulirovkalarni yaratish zarur» [1; B.314].

Gustav Radbruxning fikricha, ijtimoiy davlatchilik tushunchasi hokimiyatning ijtimoiy farqlarini namoyon qilishi va shu asosda kuchsizlarni qo'llab-quvvatlash va kuchlilarini cheklashni nazarda tutadi. Ijtimoiyadolat (huquqiy ma'noda) "aholi barcha qatlamlariga iqtisodiy va madaniy mavjudlikni nisbatan mutanosib darajada ta'minlaydigan taqsimot prinsipi"ni anglatadi [2; B.142.].

Shu munosabat bilan, amerikalik mashhur olim Ien Shapiro ijtimoiyadolatning etatistik va bozor nazariyalari o'rtasidagi demokratik "o'rta yo'l" konsepsiyasini ishlab chiqish zaruratini ko'taradi. U demokratiya va taqsimotadolati haqidagi munozara parametrlarini o'zgartirish, shuningdek,adolatni shunday talqin etish kerakligini asoslaydi –ki, unda demokratiyaga sodiqlik uning markaziy tamoyili bo'lib xizmat qiladi [3; B.75-76.].

Ijtimoiy davlatchilik tamoyili shaxsning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy huquqlari bilan uzviy bog'langan bo'lib, zamonaviy davlatlar konstitutsiyalarida keng mustahkamlangan. Insonning ijtimoiy va iqtisodiy huquqlari tizimini birlashtiruvchi asosiy tamoyil – Inson huquqlari umumjahon deklarasiyasining 25-moddasi 1-bandida qayd etilgan: «Har bir inson o'zi va oilasining salomatligi va farovonligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan hayot darajasiga – oziq-ovqat, kiyim-kechak, turarjoy, tibbiy xizmat va ijtimoiy ta'minot huquqiga egadir; ishsizlik, kasallik, nogironlik hollarida ta'minlanish huquqiga egadir».

Ushbu asosiy prinsip Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 11-moddasi 1-bandida yanada rivojlantirilgan: «Ushbu Pakt ishtirokchi davlatlar har bir shaxs uchun o'zi va oilasi uchun munosib hayot darajasiga bo'lgan huquqni e'tirof etadilar, bu yetarli oziq-ovqat, kiyim-kechak va turarjoyni o'z ichiga oladi, hamda yashash sharoitlarini muntazam yaxshilash huquqini tan oladilar». Bu qoidalar BMT va YEXHTning boshqa asosiy hujjalardan ham mustahkamlangan.

Shakllantirilayotgan ijtimoiy davlatning asosiy vazifasi – insonga munosib hayot sharoitlarini yaratishdan, Konstitutsiya va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda mustahkamlangan huquq va erkinliklarni amalda ta'minlashdan iborat bo'lib, ular fuqarolarning manfaat va ehtiyojlarini ifodalaydi. Shu munosabat bilan quyidagi xulosaniadolatli, deb hisoblash lozim: «ijtimoiy davlat – bu yuridik tenglik doirasidan chiqish, uni yetarli emas, deb tan olish demakdir. Bu ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlikdan kelib chiqadigan shart-sharoitlaridagi tengsizlikniadolatsiz, deb tan olish, amaldagi tengsizlikni yumshatish va jamiyat boyligini qayta taqsimlash orqali tenglik doirasini kengaytirishga intilishdir»[4; B.165.].

Shu bois, har qancha mukammal bo'lmasin, insonlar o'rtasidagi to'liq tenglikka erishish amalda imkonsiz bo'lsa-da, ijtimoiy davlat «tengsizlikni yumshatish», mulkiy farqlarni kamaytirish va har bir fuqaroga munosib hayot darajasini ta'minlash maqsadida shaxsning ijtimoiy maqomini oshirishga intilishi kerak.

Aynan shuning uchun ham, rossiyalik tadqiqotchi V.D.Roik ta'kidlaganidek, ijtimoiy siyosat modelida markaziy bo'g'in- bu milliy daromadni taqsimlash masalasiadir. Chunki

daromadni taqsimlash mexanizmlari jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarga asl mazmun baxsh etadi va «ijtimoiy adolat» tushunchasini amaliy ma'noda ifodalaydi. Bu borada asosiy rol davlat zimmasiga tushadi. Bu Jahon Mehnat Tashkilotining 117сонли «Ijtimoiy siyosatning asosiy maqsad va normalari to'g'risida»gi Konvensiyasida ham belgilab qo'yilgan: «... insonning salomatligi va farovonligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan ozuqa, kiyim-kechak, turar joy, tibbiy xizmat, ijtimoiy ta'minot va ta'lim kabi hayot darajasini kafolatlaydigan barcha choralarни ko'rish» [5; B.32-33.].

Ko'plab rivojlanayotgan davlatlarda ijtimoiy adolat tamoyili davlat siyosatining rahbarlik prinsiplari bo'limlarida tilga olinadi. Bu yerda ko'rsatilishicha, bu kabi normalarni sud orqali amalgalash oshirib bo'lmaydi; jismoniy yoki yuridik shaxs bu asosda ijtimoiy adolat yoki ijtimoiy xizmatlarni talab qila olmaydi. Masalan, 1998 yilgi Albaniya Konstitutsiyasining 59-moddasi 2-qismida «ijtimoiy maqsadlarga sud orqali erishib bo'lmaydi» deyiladi. Shunga o'xshash cheklar Shveysariyaning 1999 yilgi Konstitutsiyasida ham mavjud.

Demak, ijtimoiy adolat prinsipi zamонави конститутсиян huquqda tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. U ijtimoiy davlat, tenglik va inson huquqlari kabi qadriyatlarni bog'lovchi tamoyil sifatida namoyon bo'lmoqda. Biroq, ushbu prinsipni yuridik jihatdan amalgalash qator muammolarga duch kelmoqda: deklarativ xarakterdan tortib, institutsional to'siqlargacha. Aleksey Doljikov o'z tadqiqotida konstitutsiyalaridagi ijtimoiy huquqlarning amalgalash oshirilish darajasini tahlil qilib, bu huquqlar ko'pincha fuqarolik va siyosiy erkinliklarga nisbatan ikkinchi darajali bo'lib qolishini qayd etadi. U ijtimoiy me'yorlarni populistik talqin qilish orqali asosiy erkinliklarga zarar yetkazilishi xavfini ta'kidlaydi [6; B.133.].

Jon Ferejon va Larri Kramer Kolumbiya amaliyotini tahlil qilib, u yerda Konstitutsiyaviy sud ijtimoiy huquqlarga (masalan, tibbiy xizmatga bo'lgan huquq) tayanadigan qarorlar qabul qilishi, hatto bu davlat budgetiga bosim o'tkazishni talab qilsa ham, mumkinligini ta'kidlashadi. Bu holat ijtimoiy huquqlarning deklarativ bo'limganligini va amaliy mexanizmlar mavjudligini ko'rsatadi.

Ma'lumki, ijtimoiy davlatchilik tushunchasi XIX asrning oxiri va XX asrda yuzaga kelgan bo'lib, dunyo mamlakatlari konstitutsiyalariga o'tgan asrning o'rtalaridan boshlab kiritila boshlangan. Bu tushuncha demokratik davlatlarning muayyan ijtimoiy siyosat yuritish va jamiyatda taqsimot mexanizmlarini tashkil etish orqali ijtimoiy adolatni qaror toptirishga bo'lgan intilishini aks ettiradi. «ijtimoiy davlat» tushunchasi ilk bor XIX asrning oxirida nemis olimi Lorens fon Shteynning «Huquqiy va ilmiy-davlat Germaniyasining buguni va istiqboli» asarida ilmiy muomalaga kiritilgan. Rasmiy muomalaga esa u 1943-yilda Britaniya Parlamentiga Lord Beveridj tomonidan taqdim etilgan «Ijtimoiy sug'urta haqida»gi ma'ruzada kiritilgan bo'lib, unda Britaniya davlatining ijtimoiy taraqqiyot strategiyasi bayon etilgan edi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam ijtimoiy adolat tamoyili ijtimoiy davlatchilik shakllanishi uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

- Хабриева Т. Я., Чиркин В. Е. Теория современной конституции. - М.: Норма, 2005. С. 314.
- Жалинский А. и др. Введение в немецкое право. - М.: Спарк, 2001. - С.142.
- Шапиро И. Три способа быть демократом // Политические исследования. - 1992. - № 1-2. - С. 75-76.

4. Мартышин О. В. Справедливость и право //Государство и право на рубеже веков: проблемы теории и истории. Материалы Всероссийской конференции. – М., 2001. – С. 165.
5. Роик В. Д. Социальная модель государства: опыт стран Европы и выбор современной России // Государственная власть и местное самоуправление. – 2006. – № 10. – С. 32–33.
6. А. Дожиков. Конституционные социальные права и их юстициабельность. Сравнительное Конституционное Обозрение 2019. №6 (133).

**YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR
VI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, avgust

Mas'ul muharrir:

F.T.Isanova

Texnik muharrir:

N.Bahodirova

Diszayner:

I.Abdihakimov

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
VI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.1-jild, 6-son (avgust, 2025-yil). – 177 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 7-avgust

Barcha huqular himoyalangan.

© Science problems team, 2025-yil.

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.